



2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA UNGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR

Sidiqov Sardorbek Zafarjon o'g'li


NamDU, Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi

Tel: +998(93) 670 01 05.

Annotatsiya: Zamonaviy texnologiyalar bugun barcha sohalarga birdek kirib borgan. Shu jumladan, ijtimoiy hayotimizni ham ayni damda mobil qurilmalarsiz yoki kompyuterlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shu yo'sin insoniyat hayoti raqamlashib, virtuallashib bormoqda. Ushbu maqolada muallif zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va yoshlar hayotida ularning virtuallashuv jarayoni sabablari hamda omillari haqida batafsil bayon qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, virtuallashuv, raqamli hayot, zamonaviy texnologiyalar, yoshlar va h.k.

Ayni damda butun dunyoda globallashuv hamda madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Ushbu murakkab jarayon nafaqat yosh qatlam vakillariga, balki katta yoshli insonlar dunyoqarashiga ham ta'sir etmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, buni har qanday raqamlarsiz ham kuzatish mumkin. Shuningdek, bugun har bir sohada yuqori sifatli informatsion texnologiyalar katta ahamiyat egallab borayotgan bir vaqtda, yoshlar hayoti ham tobora virtuallashib bormoqda. Virtuallashuv bu, avvalo, har ishda ijtimoiy tarmoqlarga ehjtiyoj sezish degani. Ayniqsa, pandemiya






2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

davrida butun bir Yer shari ijtimoiy tarmoqlarga cheksiz qaram bo'lib qoldi deya aytish mumkin. Shu o'rinda tahliliy faktlarga murojaat qilamiz: dunyo bo'yicha 4.66 milliard faol mobil internet foydalanuvchilari mavjud. Bu esa butun Yer yuzida istiqomat aholining 59.5 foizi degani. 2020-yil boshqa yillarga qaraganda internetdan foydalanish bo'yicha keskin ko'tarilish bo'ldi. Chunki ayni davr bizni koronavirus infeksiyasi tarqalishi fonida to'rt devor ichiga qamab qo'ydi. Ammo 2020 va 2021-yillar o'rtasida ayni shumavzuda keskin farq ko'rmaymiz. Shuningdek, tarmoq foydalanuvchilarning neg ko'p qismi O'rta Osiyo hissasiga to'g'ri keladi. Albatta, bu yerda Xitoy Xalq Respublikasi aholis butun gunyo aholising 1 qismini tashkil etishini inobatga olsak, unda bu ancha o'rtacha holat sifatida qaraladi. Yana bir fakt shundaki, ijtimoiy hayotning ijtimoiy tarmoqlarga aylanib borishi, ya'ni virtuallashuvi eng ko'p hollarda har tomonlama rivojlanagan va ayniqsa, IT sohasida eng yuqori cho'qqilarni zabt etgan mamlakatlarda seziladi. Xitoy Respublikasi esa kuni kecha hatto Sun'iy Quyosh ixtiro qildi. Yoshlar hayotida virtuallashuv tobora chuqurlashmoqda. Buni yuqorida keltirilgan raqam va sonlardan bilish ham mumkin. Mamlakatimiz aholisining katta yoshli vakillari bu holatning ancha yomon va barqaror turmush darajasidan chetlashish darajasida baholaydilar. Biroq butun dunyo bilan solishtirganda bu o'z muvozanatini saqlab turibdi deyish mumkin. Tanganing ikki tomoni bor deganlaridek, virtuallashuvning ijobiy jihatlarini ham aytish o'tish joiz. Bugungi kunda hatto mobil telefonlar-u kompyuterlarni qo'li bilan ushlab ko'rmagan yoshlar mavjud. Ma'lumot uchun Afrika qit'asining 70% aholisi o'qish va yozish qobiliyatidan hamon bebahra. Ayni shu jihatlar esa qit'a rivojlanishdan asrlab ortda qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Demak, virtuallashuv bu bir jihatdan rivojlanishga asos ham demakdir. Biroq





2022


DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

shakarning ozi yaxshi deganlari kabi, internetdan foydalanishda ham me'yor bo'lgani ma'qul. Me'yordan chetlashilsa, bu keyin virtuallashuvning hayotga aks ta'siri sezila boshlaydi. Mamlakatimizda birgina Internet tizimidan foydalanuvchilar soni 12,1 mln.ga yaqin, ya'ni respublikamiz aholisining uchdan bir qismi aynan Internet tarmog'idan muntazam foydalanib kelmoqda. Bu albatta, mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotganidan, fuqarolarimizning axborot olish, saqlash, tarqatish kabi konstitutsion huquqlarini amalga oshirishda sifatli aloqa tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida hamda iqtisodiyotning barcha sohalariga zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi bilan aholining turmush tarzi farovonlashayotganligini, fuqarolarga sifatli xizmatlar ko'rsatish tubdan yaxshilanayotganligini ham e'tirof etish joiz. Ayni paytda mamlakatimizda 1400dan ziyod ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Bugun yurtimizning milliy axborot makonida gazeta, jurnal, radio va televideniye kabi an'anaviy OAV bilan bir qatorda, raqamli va mobil televideniye, internet-gazeta, internet-radio ham kun sayin mustahkam o'rin egallamoqda. Hozirgi kunda ularning soni 330 dan oshdi. Shuningdek, 60 dan ziyod telekanal yoshlar auditoriyasining turli-tuman axborot ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun xizmat qilmoqda. Ushbu ommaviy axborot vositalari navqiron avlod vakillarining axborot madaniyatini va mafkuraviy immunitetini shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ta'lim olish jarayonlariga ham axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy qilish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikalari bilan






2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

ta'minlash barobarida ta'lim berishni zamonaviy usullardan foydalanish, barcha ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari tashkil etilib, mazkur markazlarda internet tizimidan foydalanish imkoniyatlari yaratib berilgan. Axborot globallasuvi jarayonida milliy axborot makonini shakllantirish, himoya qilish va uni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish har bir davlatning strategik manfaatlari bilan hamohang bo'lgan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish sur'atining yanada oshirilishi esa axborot almashuvi sohasida cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Bu, o'z navbatida, dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylangan. Bugun axborot asrida yashamoqdamiz. XX asrda insoniyat uchun yadroviy qurollar xavf solgan bo'lsa, XXI asrga kelib, turli maqsadlarni ko'zlab din niqobi ostida uyushtirilayotgan axborot xurujlari butun dunyoni tahlikaga solib qo'ymoqda. Binobarin, o'sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular axborot makoniga kirganda, faqat o'zi uchun zarur va foydali narsani olsin, Internetdan foydalanish madaniyatini o'rgansin. O'zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan yutuqlarning negizida turgan asosiy omil insondir. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir», degan so'zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Barkamol avlodni tarbiyalashda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan, ayniqsa, so'nggi yillarda bu boradagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 188- va





2022


DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

2-modda bilan to'ldirilgan bo'lib, Voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish, ya'ni restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvsiz ko'rsatilgan muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'yish ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi belgilangan. Bir qarashda, arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan darajada ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Bu tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, ilmiy asosda puxta tashkil etilgan, uzluksiz olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish talab etiladi. Davr shiddati bilan birga qadam tashlayotgan yoshlarimiz milliy ma'naviyatimiz asosida tarbiya topsa, odob-axloq tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Xulosa qilar ekanmiz, yoshlarimiz bu bizning qurilayotgan kelajagimiz egalari. Ularga qilinajak har qanday ma'naviy tajavvuz bu, avvalo, kelajagimizga, yurtimizga qilinajak tajavvuz demakdir. Butun dunyo ijtmoy tarmoqlashish jarayonini boshidan o'tkazayotgan bir vaqtda, biz yoshlarimizni bundan mosivo qilib qo'ya olmaymiz. Yoshlar hayotida virtuallashtirish jarayonining jadallashib ketishiga pandemiya davri ham yana bir turtki bo'ldi deya aytib olamiz. Vaholanki, butun Yer yuzida bu davr katta va keskin burilish yasay oldi. Insonlarni virtuallashtirish jarayonining salbiy ta'sirlaridan muhofaza qilish uchun, avvalo, oldimizda turgan "qurol"dan to'g'ri maqsadlardan





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

foydalana olishimiz va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini me'yorlashtira olishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.broadbandsearch.net/blog/internet-statistics>
2. <http://uz.infocom.uz/2016/07/28/axborotlashgan-jamiyatda-yoshlarningorni-va-burchi/>
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyatva-huquqiy-kafolat>

